

PARANJINING KELIB CHIQISHI VA IJTIMOIIY-MADANIY AHAMIYATI

Olimjonova Xumora Jamoliddin qizi

Ózbekiston Milliy Unversiteti Etnologiya yónalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo, xususan, o'zbek jamiyatida paranji kiyimining kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi va ijtimoiy-madaniy ahamiyati yoritiladi. Paranjni dastlab iqlimiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida shakllangan bo'lib, keyinchalik jamiyatda ayolning mavqei, urf-odatlar va diniy qarashlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Maqolada paranjining diniy libos sifatida noto'g'ri talqin qilinishi ham ilmiy asosda tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *paranji, chachvon, faraji, ayollar kiyimi, an'anaviy libos, Markaziy Osiyo, ijtimoiy madaniyat.*

KIRISH

Paranji va chachvon Markaziy Osiyo, xususan, o'zbek jamiyatida ayolning ijtimoiy mavqei va diniy-axloqiy qarashlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan kiyim madaniyati unsurlaridir. Ular ko'pincha ayol tanasini to'liq yopuvchi, shaxsiylikni cheklovchi kiyim sifatida talqin qilinadi. Biroq etnografik va tasviriy manbalar paranjining kelib chiqishi ancha murakkab va ko'p qatlamli ekanini ko'rsatadi.

Samarqand kiyim-kechak an'analari tadqiq etgan etnograf O. A. Suxareva paranjining mustaqil ayollar tashqi kiyimi sifatida XVI asrgacha shakllanmaganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, dastlab "faraji" nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu kiyim erkaklar xalatiga xos bo'lib, faqat keyinchalik ayollar libosiga moslashtirilgan.

Markaziy Osiyo kiyim madaniyatining evolyutsiyasini o'rganishda miniatyura san'ati muhim manba hisoblanadi. XV–XVI asrlarga oid miniatyuralarda erkaklar va ayollar kiyimlari o'rtasida keskin farq bo'lmaganini, farajining tantanali ustki kiyim sifatida qo'llanilganini kuzatish mumkin. Bu holat paranjining diniy buyruq mahsuli emas, balki tarixiy-madaniy jarayonlar natijasi ekanini ko'rsatadi.

Chachvon – "qora ot yolidan toqilgan maxsus yuz yopgich" evolyutsiyasi esa paranjidan nisbatan mustaqil rivojlangan. Sharqda ayollar yuzlarini oq nafis mato bilan tosishi mavjud bolgan bolsada bu a'nana yanada qadimiyroq hisoblanadi. V. Rubruk mog'ul malikalarini kiyimlarini tasvirlashda ko'zlaridan ko'kraklariga qadar tushib turuvchi oq mato bog'laganliklarini yozgan. Qora ot junidan to'qilgan chachvon esa Markaziy Osiyoda asosan XVIII–XIX asrlarda keng tarqalgan bo'lib, ularni to'qish bilan kochmanchi lo'li ayollar shug'ullangan.

Shunday qilib, paranji va chachvon o‘zbek ayolining diniy emas, balki tarixiy-ijtimoiy sharoitlar ta’sirida shakllangan kiyim madaniyati unsurlari bo‘lib, ularni gender munosabatlari va madaniy transformatsiyalar doirasida tahlil qilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Suxareva O. A. Samarqand kiyim-kechak an’analari tarixi. – Toshkent, 1976.
2. Bartold V. V. Turkiston tarixiga oid tadqiqotlar. – Toshkent, 1963.
3. Efremov F. Buxoro va Markaziy Osiyo haqida qaydlar. – Sankt-Peterburg, 1786.
4. 4.Пугаченкова Г. А. Искусство Средней Азии. – Ташкент: Искусство, 1982.